

**O'ZBEK MUSIQASIDA BASTAKORLIK USLUBLARINING  
ILMIY -NAZARIY ASOSLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14984844>

**Xakimov Orifjon Boboramazonovich**

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası  
katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada xalqimizning ma'naviy hayoti, milliy qadriyatlari, millatimizning ko'p yillik an'ana va udumlari, shuningdek, ustoz-shogirdlik an'analari asosida bizgacha yetib kelgan milliy musiqiy merosimizga yuksak hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni chuqur o'rganish, keng targ'ib qilish hamda kelgusi avlodlarga munosib tarzda yetkazish borasida bir qator xayrli ishlar amalga oshirilgan deb fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar**

ma'naviy hayoti, milliy qadriyatlari, millatimizning ko'p yillik an'ana va udumlari, bastakorlik san'ati, bastakor-mumtoz musiqa yo'nalishlarida, milliy musiqa ijodiyoti.

**Аннотация**

В данной статье думается, что сделан ряд добрых дел в плане бережного отношения к дошедшему до нас национальному музыкальному наследию, его углубленного изучения, широкой пропаганды и правильной передачи будущим поколениям, исходя из духовной жизни нашего народа, национальных ценностей, давних традиций и традиций нашего народа, а также традиций учителей и учащихся.

**Ключевые слова**

духовная жизнь, национальные ценности, давние традиции и традиции нашего народа, композиторское искусство, композиторско-классическая музыка, национальное музыкальное творчество.

**Annotation**

This article argues that a number of good deeds have been done to treat our national musical heritage that has come down to us with great respect, to study it in depth, to promote it widely, and to pass it on to future generations in a worthy manner, based on the spiritual life of our people, national values, long-standing traditions and customs of our nation, as well as the traditions of mentorship.

### Key words

spiritual life, national values, long-standing traditions and customs of our nation, the art of composition, composers in the fields of classical music, and national musical creativity.

**Kirish.** O'zbek xalq musiqa merosi boy va uzoq o'tmishga ega. Uning ildizlari ming yillik tarixga egaligi manbalarda zikr etib kelinadi. O'zbek bastakorlik ijodiyotini ilmiy tadqiq etgan musiqashunos olim T.B. G'ofurbekovning yozishicha: «Milliy bastakorlik san'ati-yillarva asrlargina emas, balki ming yilliklar davomida barcha sinovlarga bardosh berib, usluban sanog'i yo'q musiqiy bitiklar tevaragida o'z an'analarini yo'qotmay kelmoqda. Albatta, bastakorlik ijodiyotining ilk qadamlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu aslida muqarrar jarayon. Chunki har qanday ijod mahsuli insoniyat tafakkurining mevasi hisoblanadi. Oddiy xalq musiqa namunalari ham sodda bo'lsa-da, insoniyatning yaratuvchanlik harakatlarining mevasidir. Lekin, ijodning mumtozlik, ya'ni kasbiylikka xos bo'lgan namunalari aynan bastakorlik an'analariga xos deb e'tirof etib kelinadi. Ma'lumki, bastakorlik sohasi ijrochilik an'analarining pirovardi sifatida yuzaga kelgan. Ijrochilik an'analarini mukammal o'zlashtirgan, musiqa merosini idroklagan va merosga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish iste'dodi bo'lgan yetuk xonanda va sozandalarning amaliyotida qaror topgan. Bastakorlik amaliyotining o'zi bir qator tabiiy, hayotiy va ijodiy qoidalarga asoslanib shakllangandir. Ushbu qoidalar, avvalo, milliy qadriyatga, makon va zamonga, shakl-ushamoyilga, xarakterga va qolaversa, bir qator musiqiy unsurlarni o'zida mujassam etishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi davrga kelib, o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi har tomonlama mukammal, teran mazmunli, an'ana va zamonga mos sayqal topayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu, albatta, mustaqillik davrida milliy musiqa ijodiyoti va ijrochiligiga bo'lgan e'tiborning yuksakligidir. An'anani saqlab, davom ettirish uchun davr yoshlari mohir ijrochi bo'lishlari barobarida, kelgusida shu sohaning yetuk mutaxassisi, kamolotga yetaklovchi o'qituvchisi, ya'ni har tomonlama bilimdon ustoz sifatida kamolga yetishishlari lozim.

Bastakor» iborasi fors-tojik so'zlar birikmasidan hosil bo'lgan bo'lib, «basta»-bog'lash, «kor»-ish, mashg'ulot degan ma'nolarni bildiradi. Musiqada bastakor-mumtoz musiqa yo'nalishlarida, uslublarida badiiy asar yaratgan ijodkorlarga nisbatan qo'llanilib kelinadi. Tarix davomida bastakorlar, ya'ni musiqa ijodi bilan shag'ullangan ijodkorlar turli davrlarda va o'zgacha nomlar bilan atalib kelingan. Jumladan, «O'zbek va tojiklar-bastakor (shuningdek, ohangdon, navosoz, ozarbayjon, arman va turklar - oshiq, qozoq va qirg'izlar - oqin, kyuuyshi, salsere kabi atamalarishlatishadi. Bastakor iborasi negizida musiqa yaratuvchilik bilan

bog'liq bir qator amallarni o'zida mujassam etgan turlar mavjud. Musiqa ijrochiligida mohirlikka erishib, faqat o'z ijrosi va uslubida musiqa ijod etganlar ham uchraydi, (ayniqsa, hozirgi davrga kelib bu yo'nalish ancha ommalashgan. Bastakorlik ijodiyotida kuy bastalash bilan birga ushbu kasbning xususiyati bilan bog'liq yana bir qator jihatlarni aks etuvchi amallarni qamrab oluvchilar ham mavjud.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Azaldan ushbu kasb egalari ham xalq musiqa ijodiyotida o'z o'rniga ega ekanligi musiqiy risolalarda bayon etilgan. Jumladan, A.Navoiy asarlarida zikr etilgan «lahnpardoz», «nag'mapardoz» so'zlaridir. O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga egadir. Musiqa merosidan, Xalq kuy va qo'shiqlaridan ilxom olmagan zamonaviy musiqaning biron bir soxasini topish qiyin. Ommaviy estrada qo'shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet, musiqali drama janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralmagan holda tassavur etib bo'lmaydi. Musiqa merosimizni, milliy musiqamizni ko'plab etnografik ansanbllar keng tashviqot qilish va uni yangi mazmun bilan boyitishda muhim o'rin tutadi. Bu ishda Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Domla Halim Ibodov, Hojixon Boltaev, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov va boshqalar katta faoliyat ko'rsatdilar. Bunday xofizlarimiz ijro etgan kuy va qo'shiqlar, maqomlardan tashqari musiqaning boshqa janrlari ya'ni kompozitorlik ijodiga mansub bo'lgan asarlar yo'q edi. 1930- yillardan so'ng musiqamizda yangi janrlar xor, kantata, opera, balet va simfoniya kabi kompozitorlik uslublar paydo bo'la boshladi. Bunda eng avvalo Xalq musiqa merosimizni notada aks ettirish va undan kompozitorlik uslublaridan foydalanishga katta ahamiyat berildi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun Respublikamizning turli shaharlarida bolalar musiqa maktablari, musiqa texnikumlari va xalq konservatoriyalari ochildi. 1928 yil Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqod instituti tashkil topdi. Bu o'quv maskanlarida rus musiqa mutaxassislarining xizmatlari katta bo'ldi. Natijada musiqalarni notaga olish, ansanbllar tuzish, zamonaviy janrlarda yangi asarlar yaratish ishlari boshlandi.

Xalqimizning ma'naviy hayoti, milliy qadriyatlari, millatimizning ko'p yillik an'ana va udumlari, shuningdek, ustoz-shogirdlik an'analari asosida bizgacha yetib kelgan milliy musiqiy merosimizga yuksak hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni chuqur o'rganish, keng targ'ib qilish hamda kelgusi avlodlarga munosib tarzda yetkazish borasida bir qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlodga boy madaniy merosimizni o'rgatish va milliy qadriyatlarimizni singdirish muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida e'tibor qaratilgan.

Bastakorlik ijodi va umuman, musiqa san'atining turli yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar, IX–XVII asrlarda yashab ijod etgan AlKindiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvish ali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga bag'ishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan. Risolalarda qayd etilishicha, musiqaning nazariyasi va amaliyoti azaldan o'zaro bog'liq holda shakllanib kelgan. O'z davrining yetuk musiqashunos allomasi, bastakori, mohir sozanda va xonandasi hamda shoiri Darvish Ali Changiy XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida Buxoro shahrida yashab ijod etgan. Allomaning so'nggi ijod namunasi «Risolayi musiqiy»dir. Risola mazmunan ikki ulkan qismdan iborat. Birinchi qismi musiqaning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Ikkinchi qismi esa tazkira uslubida bayon etilgan bo'lib, asosan, muallif yashagan davrgacha va zamonasining mohir va dongdor musiqashunoslari, bastakorlari, sozanda va xonandalarining ijodiy faoliyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Ta'lim jarayonini tarixiy saboqlar bilan amaliy o'zlashtirish zamon talabidir. An'anaga asoslangan va zamon talabida ijodiy yondashgan amaliyotning natijasi samarali bo'lishi shubhasiz. Shu bois mazkur fanning o'quv dasturiga binoan, o'rta maxsus musiqa o'quv yurtlarining «An'anaviy ijrochilik», «O'zbek xalq cholg'ulari» va «Musiqa nazariyasi» bo'limlari ta'limi uchun quyidagi o'quv qo'llanma o'quvchilarga tavsiya etilmoqda. Shu bilan birga bastakorlik, san'atshunoslik, musiqashunoslik va cholg'u ijrochiligi yo'nalishlari uchun bastakorlik ijodi bevosita zarur ekanligini ham e'tiborga olish lozimdir. Asosiy maqsadimiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz musiqa ijodkorlari, millatimizning ma'naviy dunyosini ohanglarda ifoda etib kelgan namoyandalar, ko'p asrli tarixni bosib o'tib, o'zining muayyan musiqiy an'alarini avloddan avlodga boyitib kelgan bastakorlik ijodiyoti tarixi va taraqqiyot yo'lini bilib va unga hissa qo'shgan avlodlarning ilmiy va ijodiy merosini ardoqlashdir. Kelajak ijodiy ishlarida ushbu an'analarga asoslanish, zamon talabi doirasida ijod etishda zamonaviy va umumbashariy jihatlarni inobatga olgan holda munosabatda bo'lishdir.

**Xulosa qilib shuni aytish kerakki.** Natijada milliy musiqamiz asosan ikki yo'nalishda – og'zaki an'ana va kompozitorlik musiqa ijodi uslubida keng rivojlana boshladi. Shu yillarda tashkil topgan ko'plab etnografik ansambllar Xalqimiz orasida milliy musiqamizni keng tashviqot qilish va uni yangi mavzu bilan boyitishda muhim o'rin tutadi.

### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrining arxiv so'rovnoma- hujjatlari. 1987-1988 yillar.
2. "Xorazm xaqiqati" gazetasida 1960-1980y. chop etilgan teatr, musiqa san'atiga oid maqolalar.
3. X. G'ofurbekova. Bastakor Komiljon Jabborov. //Musiqqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. - T., 1997.
4. R. Yunusov. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. //Musiqqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. - T., 1997.
5. X. G'ofurbekova. Bastakor Saidjon Kalonov. //Musiqqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. - T., 1997.
6. T. G'afurbekov. O'zbek bastakorlik ijodiyotida mualliflik masalalariga doir. // Musiqqa ijodiyoti masalalari. 2 to'plam. - T., 2001.